



UDK: 81'35(045)(575.1)

Oyshajon R. USMONOVA,
Dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: o.ametova@tsul.uz, ORCID: 0000-0002-4100-7693

PhD N.Karimova taqrizi asosida

PRAGMATIC POTENTIAL OF LEGAL TERMS IN UZBEK AND ENGLISH MEDIA TEXTS: ILLOCUTIONARY AND PERLOCUTIONARY ASPECTS

Annotation

This article provides a comparative study of the linguopragmatic nature of legal terms used in Uzbek and English media texts. The core research problem focuses on identifying the capacity of legal concepts within media discourse to exert socio-pragmatic impact on the reader's consciousness, extending beyond a purely informative function. The study employs speech acts theory, componential analysis, and comparative-typological methodology. The research findings indicate that legal terms in English media texts rely primarily on analytical illocutionary goals, whereas the Uzbek press emphasizes perlocutionary effects characterized by preventive and cautionary tones. The author's scientific contribution manifests in developing a pragmatic typologization model for legal linguistic sources based on Uzbek and English materials.

Key words: Legal term, pragmatic potential, media text, illocutionary force, perlocutionary effect, speech act, legal discourse, mass media, cross-cultural analysis.

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ МЕДИА-ТЕКСТАХ: ИЛЛОКУТИВНЫЙ И ПЕРЛОКУТИВНЫЙ АСПЕКТЫ

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ лингвопрагматической природы юридических терминов, используемых в узбекских и английских медиа-текстах. Основная проблема исследования заключается в определении потенциала правовых понятий в дискурсе СМИ оказывать социально-прагматическое воздействие на сознание читателя, помимо чисто информативной функции. В статье использованы теория речевых актов, компонентный анализ и сравнительно-типологическая методология. Результаты исследования показывают, что в английских медиа-текстах юридические термины в большей степени исходят из аналитических иллокутивных целей, тогда как в узбекской прессе доминирует перлокутивный эффект – превентивный и предупредительный характер. Научный вклад автора заключается в разработке модели прагматической типизации правовых лингвистических источников на материале узбекского и английского языков.

Ключевые слова: Юридический термин, прагматический потенциал, медиа-текст, иллокутивная цель, перлокутивный эффект, речевой акт, правовой дискурс, СМИ, кросс-культурный анализ.

O‘ZBEK VA INGLIZ MEDIA-MATNLARIDA YURIDIK TERMINLARNING PRAGMATIK SALOHİYATI: ILLOKUTIV VA PERLOKUTIV ASPEKTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz media-matnlarida qo‘llaniladigan yuridik terminlarning lingvopragmatik tabiati qiyosiy tadqiq etilgan. Tadqiqotning bosh muammosi OAV diskursida huquqiy tushunchalarning shunchaki informativ vazifadan tashqari, o‘quvchi ongiga sotsio-pragmatik ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada nutqiy aktlar nazariyasi, komponent tahlil va qiyosiy-tipologik metodologiyadan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz media-matnlarida yuridik terminlar ko‘proq analitik illokutiv maqsaddan kelib chiqsa, o‘zbek matbuotida perlokutiv ta’sir – preventiv va ogohlantiruvchi xarakter ustunlik qiladi. Muallifning ilmiy hissasi o‘zbek va ingliz tillari materialida huquqiy lingvomanbalarni pragmatik tiplashirish modelini ishlab chiqqanligida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlari: Yuridik termin, pragmatik salohiyat, media-matn, illokutiv maqsad, perlokutiv ta’sir, nutqiy akt, huquqiy diskurs, OAV, kross-madaniy tahlil.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda matnlarni sotsiolingvistik va pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etish, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari (OAV) diskursida muayyan ixtisoslashgan leksikaning o‘quvchi ommasiga ta’sirini aniqlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. OAV sahifalarida yuridik terminlarning faol qo‘llanilishi jamiyatning huquqiy savodxonligi va madaniyatini yuksaltirish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z asarlari va ma‘ruzalarida ta’kidlaganidek: “Jamiyatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash — demokratik huquqiy davlat qurishning eng muhim shartidir”

[1]. Ushbu strategik vazifani amalga oshirishda matbuot tili va undagi huquqiy terminologiyaning pragmatik xususiyatlarini o‘rganish alohida ilmiy qimmatga ega.

Yuridik terminologiya o‘z tabiatiga ko‘ra qat’iy, monosemantik (bir ma’noli) va neytral bo‘lishga intiladi. Biroq, ushbu terminlar media-matnga ko‘chganda, ularning pragmatik salohiyati keskin o‘zgaradi. Ular shunchaki huquqiy faktni qayd etuvchi vosita emas, balki jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, o‘quvchida ma’lum emotsional munosabat uyg‘otuvchi (illokutiv maqsad) va ularni muayyan huquqiy xatti-harakatlarga undovchi (perlokutiv ta’sir) kuchli instrumentga aylanadi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz media-matnlaridagi yuridik terminlarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning illokutiv yo'naltirilganligi va perlokutiv natijadorligini qiyosiy jihatdan ochib berishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

Media-matn muhitida yuridik termin tushunchasining pragmatik transformatsiyasini aniqlash;

Har ikki tildagi huquqiy publisistik matnlarda nutqiy aktlarning tiplarini tasniflash;

Yuridik terminlarning o'quvchi auditoriyasiga sotsiomadaniy ta'sir mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yuridik terminlarning OAV matnlarida qo'llanilishi va ularning sotsiolingvistik tabiati uzoq yillardan buyon g'arb va mahalliy tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Huquqiy diskurs va matn pragmatikasi asoslari J. Ostin [2] va J. Serl [3] tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasiga borib taqaladi. Ularning fikricha, har qanday nutqiy birlik, jumladan, yuridik terminlar ham lokutiv (aytish), illokutiv (aytishdagi maqsad) va perlokutiv (aytish natijasidagi ta'sir) bosqichlarni qamrab oladi.

G'arb tilshunosligida huquqiy lingvistika va media nutqi muammolari P. Tiersma [4] hamda V. Bhattaning [5] tadqiqotlarida keng yoritilgan. P. Tiersma yuridik tilning o'ta rasmiylashtirilganligi matbuotga ko'chganda xalqchil interpretatsiyaga uchrashini va bu jarayonda terminlarning pragmatik yuklamasi ortishini ta'kidlaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va respublikamiz tilshunosligida huquqiy terminologiya va pragmalingvistika yo'nalishida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, yuridik terminlarning leksik-semantik va strukturaviy xususiyatlari H. Dadoboyev [6], yuridik terminologiyaning tizimliliigi va uning matndagi xususiyatlari esa bir qator o'zbek tilshunoslari tomonidan tadqiq etilgan. Biroq, yuridik terminlarning aynan o'zbek va ingliz matbuoti materiallarida illokutiv hamda perlokutiv aspektda qiyosiy-pragmatik tahlil qilinishi hamda kross-madaniy aspektda o'rganilishi hali tizimli tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Ushbu maqola ayni shu

yo'nalishdagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan urinishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda induktiv yondashuv asosiy yo'nalish sifatida belgilandi: ya'ni aniq OAV matnlari misollaridan umumiy lingvopragmatik xulosalar va modellarga qarab borildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston va Buyuk Britaniyaning nufuzli davriy nashrlari hamda onlayn media-platfomalari ("Inson va qonun", "Xalq so'zi", "The Guardian", "The Times", "Law Society Gazette") materiallaridan 2024-2026-yillar davomida saralab olingan 100 dan ortiq yuridik termin saqllovchi media-matnlar xizmat qildi.

Tadqiqotning ishonchliligi (reliability) va aniqliligini (validity) ta'minlash maqsadida quyidagi metodlar majmuidan foydalanildi:

Nutqiy aktlar tahlili metodi: Yuridik terminlar kontekstdagi illokutiv maqsadi bo'yicha (assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv, deklarativ) guruhlandi.

Qiyosiy-konseptual metod: O'zbek va ingliz tillaridagi sotsiomadaniy omillarning termin pragmatikasiga ta'siri solishtirildi.

Kontekstual va komponent tahlil: Terminning lug'aviy ma'nosi bilan uning OAV matni ichidagi pragmatik ma'nosi o'rtasidagi semantik farqlar aniqlandi.

Tahlil va natijalar. O'zbek va ingliz media-matnlari tahlili shuni ko'rsatdiki, yuridik terminlar OAVda qo'llanilganda neytrallik xususiyatini yo'qotadi. Masalan, ingliz matbuotida "alleged criminal" (shubha ostidagi jinoyatchi) yoki "presumption of innocence" (aybsizlik prezumpsiyasi) terminlari qo'llanilganda, illokutiv maqsad o'quvchida voqeaga nisbatan analitik va neytral yondashuvni shakllantirish bo'ladi. O'zbek matbuotida esa "aybsizlik prezumpsiyasi" termini ko'proq fuqarolarning huquqiy himoyalanganligini ko'rsatish orqali davlat huquqiy tizimiga bo'lgan ishonch hissini (perlokutiv ta'sir) uyg'otishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan nutqiy aktlar tiplarining har ikki til matbuotidagi taqsimoti miqdoriy jihatdan tahlil qilindi va quyidagi jadvalga kiritildi.

1-jadval. Yuridik terminli media-matnlarda illokutiv akt tiplarining taqsimoti (foizda)


Illokutiv akt turi	O'zbek media-matnlari (%)	Ingliz media-matnlari (%)	Pragmatik yo'naltirilganligi
Assertivlar (Fakt, bayon qilish)	35%	52%	Axborot berish, sud jarayonini xolis tahlil qilish
Direktivlar (Buyruq, ogohlantirish)	40%	18%	Preventiv ta'sir, qonun buzilishining oldini olish
Komissivlar (Va'da, majburiyat)	12%	15%	Islohotlar va huquqiy kafolatlarni namoyish etish
Ekspressivlar (Hissiyot, munosabat)	10%	12%	Huquqiy voqeaga ijtimoiy-axloqiy baho berish
Deklarativlar (Hukm, rasmiy e'lon)	3%	3%	Rasmiy qarorlarni ommaga e'lon qilish

Manba: Muallif tomonidan olib borilgan lingvopragmatik tahlil natijalari asosida shakllantirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ingliz media-matnlarida assertiv aktlar (52%) ya'ni fakt va yuridik voqeani ob'ektiv tahlil qilish ustunlik qiladi. Bu ingliz huquqiy madaniyatidagi pretsedent tizimi va OAVning mustaqil nazoratchi (watchdog) sifatidagi tabiatidan kelib chiqadi. O'zbek matbuotida esa direktiv aktlar (40%) yetakchilik qiladi. Masalan, "javobgarlik", "jazo muqarrarligi", "huquqbuzarlik" kabi

terminlar ishtirok etgan matnlarda asosiy illokutiv kuch o'quvchini qonunga bo'ysunishga, huquqiy tartibga rioya qilishga chaqirish hisoblanadi.

Yuridik terminlarning perlokutiv ta'sir mexanizmlari ham turlichadir. Quyidagi chizmada ushbu jarayonning kross-madaniy modeli aks ettirilgan:



1-chizma: Yuridik terminlarning tillar bo'yicha pragmatik transformatsiyasi modeli. Manba: Muallif tadqiqot kontsepsiyasi asosi.

Masalan, ingliz tilidagi "indictment" (rasmiy ayblov) termini kontekstda sud jarayonining bir bosqichi sifatida assertiv ifodalansa, o'zbek tilidagi "ayblov xulosasi" termini ko'proq jinoyatning fosh etilganligi va adolat qaror topganligi haqidagi ijtimoiy barqarorlik va preventsiya kayfiyatini (perlokutiv effekt) yaratishga yo'naltiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz media-matnlarida yuridik terminlarning qo'llanilishi shunchaki huquqiy axborotni uzatish vositasi bo'lmay, balki chuqur sotsio-pragmatik salohiyatga ega bo'lgan murakkab nutqiy jarayondir. Olib borilgan qiyosiy-tipologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquqiy leksika muayyan ijtimoiy-siyosiy kontekst va madaniy muhitga moslashgan holda o'zining pragmatik tabiatini o'zgartiradi. Ingliz media-matbuotida yuridik terminlar ko'proq assertiv nutqiy aktlar tarkibida kelib, o'quvchida voqelikka nisbatan analitik va ob'ektiv yondashuvni shakllantirishga, ya'ni muayyan illokutiv kuch

orqali xolis munosabat uyg'otishga xizmat qiladi. O'zbek ommaviy axborot vositalari diskursida esa ushbu terminlar ko'proq direktiv va preventiv xarakter kasb etib, jamiyatda huquqiy tartibotni mustahkamlash hamda qonun ustuvorligini ta'minlash kabi bevosita ogohlantiruvchi va profilaktik perlokutiv ta'sir ko'rsatishga yo'naltiriladi. Bunday lingvistik farqlar har ikki xalqning o'ziga xos huquqiy tizimi hamda matbuotning jamiyat hayotidagi an'anaviy funksional o'rni bilan bevosita izohlanadi. Amaliy jihatdan, OAV xodimlari yuridik terminlardan foydalanishda ularning o'quvchi auditoriyasi ongiga ko'rsatadigan sotsial-psixologik va huquqiy ta'sir mexanizmlarini teran his qilishlari, kelajakda esa ushbu terminlarning raqamli media hamda ijtimoiy tarmoqlar diskursidagi pragmatik evolyutsiyasini alohida yo'nalish sifatida tadqiq etish milliy huquqiy lingvistik rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B. 145.
2. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 168 p.
3. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
4. Tiersma P. Legal Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1999. – 326 p.
5. Bhatia V.K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. – London: Longman, 1993. – 240 p.
6. Dadaboyev H. O'zbek yuridik terminologiyasi. – Toshkent: "Yozuvchi", 2000. – 120 b.
7. Usmonova O.R. Huquqiy diskursda yuridik terminlarning semantik tabiati // Ilmiy xabarnoma. – Toshkent, 2025. – №3. – B. 45-50.
8. Gibbons J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. – Blackwell Publishing, 2003. – 352 p.
9. Cao D. Translating Law. – Clevedon: Multilingual Matters, 2007. – 189 p.
10. Azamatov S. Media matnlarining lingvopragmatik xususiyatlari // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2024. – №2. – B. 78-83.
11. Cotterill J. Language and Power in Courtroom Discourse. – London: Palgrave Macmillan, 2003. – 256 p.
12. Toirova G. Pragmalingvistik tahlil metodologiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2023. – №5. – B. 12-17.
13. Kurzon D. It is Hereby Performed: Legal Speech Acts. – Amsterdam: John Benjamins, 1986. – 128 p.
14. Solan L.M. The Language of Judges. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 224 p.
15. Ismoilov A. Yuridik publisistika tili va uslubi // Jurnalistika muammolari. – Toshkent, 2026. – №1. – B. 33-39.